

**O‘QUVCHILAR ORASIDA OILA HAQIDAGI TASAVVURLARINI
SHAKLLANISHIDA MAKTAB AMALIYOTCHI
PSIXOLOGNING VAZIFALARI**

Hasanova Nargiza Yurikovna

Toshkent shahar Sergeli tumani

237- maktabi amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchilarda oila haqidagi tasavvurlarni shakllantirish jarayonida maktab amaliyotchi psixologning vazifalari, psixologik yondashuvlar hamda oila va maktab hamkorligining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, sog‘lom oilaviy qadriyatlarni shakllantirishning tarbiyaviy jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: oila, o‘quvchi, psixolog, tasavvur, tarbiya, qadriyat, maktab psixologi, ijtimoiylashuv

KIRISH

Oila inson hayotida eng muhim tarbiya maskani hisoblanadi. Bola o‘zining ilk hayotiy tajribasini aynan oilada egallaydi va oila haqidagi tasavvurlari ham shu muhitda shakllanadi. Shu sababli o‘quvchilarda sog‘lom oilaviy qadriyatlarni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Maktab amaliyotchi psixologi o‘quvchilarning oila haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Psixolog o‘quvchilarning oilaviy muhitini o‘rganib, ularning psixologik holatini tahlil qiladi va zarur hollarda individual yondashuvni amalga oshiradi. Psixologik jihatdan o‘quvchining oila haqidagi tasavvurlari uning emotsional tajribasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Oiladagi mehr-muhabbat, e’tibor va qo‘llab-quvvatlash bolada ijobiy tasavvur shakllanishiga yordam beradi.

Maktab psixologi suhbat, kuzatuv va treninglar orqali o‘quvchilarning oilaga bo‘lgan munosabatini o‘rganadi. Bu jarayonda bolalarning fikrlari, his-tuyg‘ulari va tajribalari muhim ahamiyatga ega. Psixologning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda oilaga nisbatan ijobiy qadriyatlarni shakllantirishdir. Oila muqaddas maskan ekanligi, undagi hurmat va mas’uliyat hissi tushuntiriladi.

Shuningdek, psixolog ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashi lozim. Oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlik o‘quvchilarda sog‘lom tasavvurlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayrim hollarda oiladagi nizolar yoki muammolar bolaning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday vaziyatlarda psixologik yordam va qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Trening mashg'ulotlari va guruhiiy suhbatlar o'quvchilarda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishga o'rganadilar. Maktab psixologi o'quvchilarda empatiya, ya'ni boshqalarni tushunish qobiliyatini rivojlantirishga ham e'tibor qaratadi. Bu esa oilaviy munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oila — inson hayotidagi eng muhim institutlardan biri bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishida psixologik faktorlarning o'rni beqiyosdir. Yoshlarni oila haqidagi tasavvurlari ularning kelajakdagi oilaviy munosabatlari, shaxsiyati va jamiyatga bo'lgan qarashlarini shakllantiradi. Psixologik bilimlar, oila muhitidagi hissiy tajribalar va ijtimoiy o'rganish, yoshlarning oilaviy dunyoqarashlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Oila shaxs ijtimoiylashuvining ilk muhitidir. Aynan oilada insonda mehr-oqibat, hurmat, sabr-toqat, mas'uliyat kabi muhim ijtimoiy va psixologik sifatlar tarkib topadi. Yoshlarning kelajakdagi oilaviy hayotga munosabati ko'p jihatdan ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar, oiladagi psixologik muhit va tarbiya usullariga bog'liq bo'ladi. Agar oilada sog'lom muhit mavjud bo'lsa, yo shlar ham kelajakda oilaviy munosabatlarga ijobiy qarash bilan yondashadilar. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda psixologik tayyorgarlik muhim o'rin tutadi. Psixologik tayyorgarlik deganda shaxsning nikohga ruhiy jihatdan tayyorligi, oilaviy majburiyatlarni anglay olishi va muammolarni to'g'ri hal etish qobiliyati tushuniladi. Ko'plab oilaviy kelishmovchiliklar va ajrimlarning asosiy sababi yoshlarning psixologik jihatdan yetarli darajada tayyor emasligidir. Shu bois yoshlarni nikohdan oldin oilaviy hayotning mohiyati, mas'uliyati va qiyinchiliklari bilan tanishtirish zarur.

Oilaviy hayotda muloqot madaniyati alohida ahamiyatga ega. Er-xotin o'rtasida ochiq va samimiy muloqot bo'lishi oilaviy nizolarning oldini olishga yordam beradi. Yoshlar o'z fikrini to'g'ri ifodalash, tinglash va tushunish ko'nikmalarini egallashlari lozim. O'zaro hurmat va ishonch oilaning psixologik barqarorligini ta'minlaydi. Yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligiga ijtimoiy omillar ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatdagi ijtimoiy muhit, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning nikoh haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Ba'zan noto'g'ri axborotlar va salbiy namunalar yoshlarning oilaga bo'lgan munosabatini buzishi mumkin. Shu sababli yoshlar ongida sog'lom oilaviy qadriyatlarni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Moddiy ta'minot ham oilaviy hayotda muhim omil sanaladi.

Oila haqidagi tasavvurlar va ularning shakllanishi. Yoshlarni oila haqidagi tasavvurlari kichkintoylik davridan boshlab shakllanadi va bu tasavvurlar asosan ikki manbadan rivojlanadi: Tashqi ta'sirlar (ota-onalar, boshqa oila a'zolari, jamiyat, madaniyat, din va qonunlar), Ichki tajribalar (o'z hissiyotlari, o'zgaruvchan histuyg'ulari, o'zaro munosabatlar). Oila haqidagi tasavvurlar, asosan, ota-onaning munosabatlari, oila ichidagi rollar va ma'naviy qadriyatlar asosida shakllanadi.

Psixologik nuqtai nazardan, yoshlarning oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlari ularning kelajakdagi munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik bilimlarning ta'siri: Psixologik bilimlar oila haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda bir qancha yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi: Kommunikativ va hissiy ko'nikmalar, psixologik bilimlar, yoshlarni sog'lom oila munosabatlarini o'rganish va hissiy barqarorlikka erishish yo'llarini o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Oilaviy munosabatlar odatda, ikki yoki undan ortiq odam orasidagi kommunikatsiyaning sifatiga bog'liq. Yoshlar oilada qanday muammolar yuzaga kelishi, ularni qanday hal etish, va qanday qilib ijobiy hissiy atmosferada o'sganlikni tushunib yetishadi. Bolalar psixologiyasi va o'rganish nazariyasi. Bolalar va yoshlarning o'rganish jarayonlari, ularning oilaviy muhitdan qabul qilgan psixologik bilimlar orqali rivojlanadi. Oila psixologiyasi, bola o'zini oila a'zolari orasida qanday tutishi kerakligini tushunishiga yordam beradi. Misol uchun, ota-onalar o'z bolalariga oiladagi rollar, hurmat, mas'uliyat kabi qadr-qimmatlarni qanday o'rgatishlari mumkin. Rivojlanish psixologiyasi: yoshlarni oila haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishda rivojlanish psixologiyasining o'rni katta. Yoshlar, o'zining psixologik yoshi va ehtiyojlariga qarab oila haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. O'zgaruvchan jinsiy va ijtimoiy roldagi tajribalar, o'g'il yoki qiz sifatida qabul qilinadigan yondoshuvlar ham bu tasavvurlarni yaratishga ta'sir qiladi. Yoshlar turli bosqichlarda o'zlariga xos oilaviy ro'l va vazifalarni belgilab oladilar.

Oila haqidagi tasavvurlarning kelajakdagi ta'siri: yoshlarning oila haqidagi tasavvurlari nafaqat hozirgi o'zaro munosabatlariga, balki kelajakda oila qurishlariga ham ta'sir qiladi. Oila haqidagi ideal yoki real tasavvurlar oila ichidagi turli muammolarni qanday hal qilish, ota-ona bo'lish va farzand tarbiyasiga qanday yondashish masalalarida ham ta'sir ko'rsatadi. Agar yoshlar oilaviy muhitda sog'lom kommunikatsiya, o'zaro hurmat va sevgi ko'rgan bo'lsalar, ular kelajakda o'z oilarida ham shu tarzda munosabatlarni davom ettirishlari ehtimoli yuqori bo'ladi. Agar oilaviy zo'ravonlik yoki hissiy befarqlik mavjud bo'lsa, yoshlarning oila haqidagi tasavvurlari salbiy bo'lishi va bu kelajakdagi munosabatlarda muammolarga olib kelishi mumkin.

Psixologik bilimlarning yoshlar uchun ahamiyati: psixologik bilimlar yoshlarning oila haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi. Empatiya va o'zaro hurmatni rivojlantirish: Psixologik yondoshuvlar yoshlarni bir-birini tushunishga, hurmat qilishga o'rgatadi. Bu oilada qanday munosabatda bo'lishni, hissiy to'kinliklarni qanday bartaraf etishni o'rganish uchun muhimdir. O'z-o'zini anglash va o'zini qadrlash: Yoshlarning oila haqidagi tasavvurlari, ularda o'z-o'zini anglash darajasi va o'zini qadrlashga bog'liq. Agar yoshlarda o'ziga bo'lgan ishonch yuqori bo'lsa, ular oilada barqarorlikni saqlashga intilishadi. Ijtimoiy va hissiy o'zgaruvchanlik: Yoshlarning psixologik rivojlanishida oilaviy vaziyatlar va jamiyatdagi ijtimoiy normativlar muhim ahamiyatga ega. Ular bu normativlarni o'z

hayotlarida qanday qo‘llashni bilishlari kerak.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligi jamiyat barqarorligi va ijtimoiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar, axborot oqimining kuchayishi hamda gender rollariga nisbatan qarashlarning yangilanishi yoshlarning nikoh va oilaviy munosabatlarga bo'lgan munosabatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada oilaviy nizolar, ajralishlar sonining ortishi, emotsional moslashuvdagi qiyinchiliklar va mas'uliyat hissining yetarli darajada shakllanmasligi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida ularning psixologik yetukligi, emotsional barqarorligi, muloqot ko'nikmalari, konfliktlarni konstruktiv hal etish qobiliyati hamda oilaviy qadriyatlarni anglash darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jihatlarni e'tibordan chetda qoldirish oilaviy munosabatlarda psixologik nomutanosiblik va ijtimoiy moslashuv muammolarini kuchaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish, mazkur jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda samarali psixoprofilaktik va ta'limiy mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda oila haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda maktab amaliyotchi psixologining roli juda muhimdir. To'g'ri psixologik yondashuv orqali bolalarda sog'lom oilaviy qadriyatlar va ijobiy dunyoqarashni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ayvazova, D. S. (2015). Oila psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Rizaeva, N. M. (2017). Yoshlarning oila haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning psixologik asoslari. Psixologiya va pedagogika jurnali, 1(3), 45-50.
3. Saidova, A. M. (2019). Oila tarbiyasi: Psixologik yondoshuvlar va strategiyalar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
4. Sultangazieva, M. M. (2016). Oila va jismoniy tarbiya: Psixologik yondoshuvlar. Toshkent: O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
5. Gulay, R. M. (2014). Oila psixologiyasi va oilaviy munosabatlar. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
7. G'oziyev E. Psixologiya. - T.: O'qituvchi, 2010.
8. Davletshin M. Yosh va pedagogik psixologiya. - T.: Fan, 2012.
9. Otajonov A. Oila psixologiyasi asoslari. - T.: Universitet, 2015.